

BUXORO MEHMONXONALARI NOMLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamov Akbar Sayfulloyevich

*Buxoro viloyati hokimining davlat tili
masalalari bo'yicha maslahatchisi,*

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

(O'zbekiston)

e-mail: akbar2683@umail.uz, akbar.rustamov.1983@mail.ru

meл: 97 301 -66-67

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Buxoro qadimdan jahon jamoatchiligining hayrati va havasini qozonib kelgan. Xususan, tarixning turli davrlarida shakllangan davlatlar poytaxti, o'ziga xos ilm va ma'rifat markazi maqomi, yuqorida ta'kidlanganidek savdo yo'llarining chorrahasi sifatida shahar doimo turli davlatlardan kelgan sayohatchi, tijoratchi hamda talabalar bilan gavjum bo'lgan.

Bu esa azaldan hududda turizm servisi rivojlanishiga o'ziga xos omil bo'lib xizmat qilgan. Uzoq mamlakatlardan kelgan savdo karvonlari egalari hamda boshqa sayyoohlarga sifatli xizmat taqdim etish maqsadida mehmonxonalarining o'sha paytdagi muqobili hisoblangan karvonsaroyslar, musofirxona-taqyalar, shahar atrofida esa rabotlar barpo etilgan.

O.A.Suxareva "Buxoro XIX asar va XX asr boshlarida" nomli asarida o'sha davrda mavjud bo'lgan 62 ta karvonsaroyning birma-bir nomlarini keltirib o'tadi.

Buxorodagi karvonsaroylarning aksariyatini mahalliy savdogarlar ijara ga olgan. Karvonsaroyslar turli yurtlardan kelgan mehmonlar, savdogarlar uchun boshpana, mehmonxona vazifasini ham o'tagan. Karvonsaroyslar, odatda, ma'lum bir yerdan kelgan savdogar yoki musofirlarga xizmat ko'rsatgan. Masalan, ular savdogar yoki mehmonlarning aniq bir qo'nim makoni bo'lgan, ular uchun doimiy xizmat ko'rsatuvchi maskan vazifasini o'tagan, ya'ni ayni bir joyning odamlari uchun muntazam qo'nalg'a

vazifasini o‘tagan. Shundan kelib chiqib, karvonsaroylar nomlangan. Xorazmlik savdogar va musofirlarga xizmat qiluvchi karvonsaroy “Saroyi Urganjiho”, toshkentlik savdogarlar, asosan, mayiz keltirgani uchun ular qo‘nim topgan joy “Saroyi mayizi Toshkandiho” deb atalgan.

XIX asrdagi yirik karvonsaroylardan biri Hokim oyim karvonsaroyi bo‘lib, bu nom uning ma’lum bir shaxs nomiga qo‘yilganligidan dalolat beradi.

Buxoroda yirik karvonsaroylardan tashqari kichik karvonsaroylar ham faoliyat yuritgan. Bu zamonaviy shahar ergonimiyasida uy mehmonxonalar(hostel) vazifasini o‘tagan. Bunday karvonsaroylar uchun, odatda, yo‘l bo‘yi xaritasi tizimiga amal qilingan. Yo‘l bo‘ylaridagi uy sohiblari ushbu xizmatlarni ko‘rsatish uchun hovli-joylarini shunga moslashtirib qurishgan. Hozirgi kunda ham bu an’ana davom etib kelyapti.

Bundan tashqari Buxoroda chetdan kelgan musofirlar uchun maxsus yotoqxonalar qurilgan. Bunday yotoqxonalar taqiya deyilgan. Taqiyalar hujralardan iborat bo‘lgan hovlilardir. Takiya yoki taqiya so‘zi aslida bosh kiyimi ma’nosini ifodalagan, bundan shunday xulosa qilish mumkinki, so‘z ma’nosining kengayishi natijasida u boshpana, yotoqxona semasini ham metaforik, ham metonimik yo‘l asoida ko‘chirilishi bilan paydo bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ayniqsa 2016-yildan boshlab olib borilgan ochiq siyosati natijasida O‘zbekistonda sayyoohlar oqimi keskin ko‘paydi. Natijada esa hududda turistlarga munosib yashash sharoitlarini taqdim etish uchun yangi mehmonxonlarga ehtiyoj tug‘ildi. Yangilanish nafaqat joylashtirish vositalarining soni, ularning xizmat sifati, turi va darajasiga nisbatan ham tatbiq etildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra Buxoro viloyatida 610 ta barcha turdagи joylashtirish vositalari ro‘yxatga olingan.

Albatta ushbu 610 ta mehmonxona, hostel, oilaviy mehmon uyi va boshqalarning har birining o‘z nomi, ushbu nomlar har birining o‘z nomlanish tarixi va izohi bor.

Shu bois ushbu nomlar shunchaki atash funksiyasini bajaribgina qolmay, mehmonxoа xizmati haqida ma'lumot berish, reklama, yodgorlik, estetik, mulkni himoya qilish vazifalarini o'zida ifodalaydi.

Atash yoki nomlash funksiyasi bu barcha o'ziga xos nomlarning asosiy, asosiy til funksiyasidir. Har bir biznes subyekti o'z nomini talab qiladi, shunda boshqalar ushbu muassasani tanib olishlari, tan olishlari (aniqlashlari) va uni boshqa turdoshlaridan farqlashlari mumkin. Xuddi shunday Buxoroda mehmonxonalarning ko'pligi ushbu muassasalarning turli nomlarga ega bo'lishini talab qiladi:

Grand Buxoro, Orom, Old Siti, Afrosiyob, Ark va h.k. Shunday qilib ergonimlarning, aniqrog'i mehmonxona nomlarining bu funksiyasini **identifikatsiyalash-differensiatsiyalash** sifatida tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, har bir nom o'z ma'lumotlari bilan to'ldirilgan. Shunday qilib, ergonimlar kompaniyaning joylashgan joyini ko'rsatib, odamni yo'naltirishi mumkin: **Grand Buxara** – Buxoro shahrida, Olot plaza – Olot tumanida, Ko'kaldosh – qadimiy Ko'kaldosh madrasasi binosi yaqinida, Zargaron – Zargaron guzarida joylashgan. Biroq ko'pincha mehmonxona ergonimlari boshqa turdag'i ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1) obyektning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida hisobot (xizmatlar turiga ishora): **Orom, Al Hayat, Dera (fr. uy) hotel, Villa oasiz va b.q.**

Bunda:

Mehmonxona xizmati turi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilishi mumkin: **Hotel, Hausu, Mehmonxona;**

metafora bilan: **Orom, Toji sar, Fayz, Shodlik;**

metanimiya bilan: **Shohona, Mumtoz, Paradays, Saodat;**

assotsiativ ravishda: **Qamar Hotel, Mehmonxona Amina Boutique, Zargaron Hotel Boutique** va boshqalar;

Biroq hozirgi vaqtida ma'lumot beruvchi funksiyani bajarmaydigan, semantik jihatdan faqat tadbirkorning o'zi yoki tor doiradagi mijozlar uchun qimmatli bo'lgan ko'plab nomlar paydo bo'ldi. Masalan, **Mufarshox (Muhiddin, Farrux, Shohrux)**

abboergonimi oila a'zolari ismlarining bosh bo'g'inlarini anglatadi.

Bunday mehmonxona nomlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) yetakchilikka qaratilgan nomlar (**Royal Bukhara, Sarbon Plaza, Shakh Hotel, Shohnishin Boutique**);

2) mashhur shaxslar (tarixiy shaxslar, doston va asar qahramonlari) ismlari – **Temur, Sohibqiron, Afrosiyob, Siyavush, Rustam, Suxrob-Borzu**);

3) mehmonxona egasi uchun qandaydir ma'noga ega bo'lgan yulduz yoki samoviy predmetlar, burjlar nomi (**Shams, Qamar, Mercuri, Zehra**). E'tibor bering, ikkinchi va uchinchi bandlarning nomlari mehmonxona sohibi uchun o'ziga xos "jozibador" bo'lgan;

Reklama funksiyasi. Bunday nomlar mehmonxona funksiyasi bilan reklama xarakterini birlashtiradi: **Grand Emir Residence, Gold Buxara, Firdavs, Rayyan, Paradays, Dream plaza.**

Estetik funktsiya. Bunday nomlar kishida ijobiy kayfiyat uyg'otadi:

- Landshaftni ifodalaydigan nomlar: **Bahor, Oasis, Garden, Firdavs, Edem;**
- Gul yoki go'zal o'simliklar nomlari: **Anor, Basilic (Rayhon), Yasmin, Lianali**
- Qush nomlari: **Humo, Aist, Abobil, Hudhud, Kolibri.**

Shunday qilib, Buxoro mehmonxonalarini nomlarining vazifalari har xil. Lekin ularning barchasi hududning onomastik makonida muhim ahamiyatga ega. Ergonimga qanchalik ko'p funktsiyalar kiritilishi mumkin bo'lsa, tadbirkorlik subyekti o'zining asosiy maqsadiga - mijozning e'tiborini jalb qilishga tezroq erishadi.

Shu bilan birga boshqa onomastik birliklar kabi mehmonxona nomlari ham muayyan hududning e'tiqodi, dunyoqarashi, intilishlarini o'zida aks ettiradi.

Masalan, mehmonxona nomlari tahlil qilinganda bino sohibining ota-onasi, farzandlari nomlari yoki qarindosh nom-atamalari (Volidam, Son (o'g'li) kabi) nomlar 32 foizni tashkil etishi oydinlashdi. Bu esa mamlakatda azaldan oilaviy munosabatlarning qadriyat darajasiga ko'tarilganligi, har bir masalaga birinchi navbatda oila manfaati nuqtayi nazardan yondashilganligini ko'rsatadi.

Buxoro mehmonxonalarini nomlarida ajralib turuvchi yana bir jihatda hudud

aholisining e'tiqodda sobitligidir.

Xususan, Abobil, Firdavs, Kavsar, An nur kabi nomlar orqali hudud aholisining Islom diniga e'tiqod qilishi, Fayz, Baraka, Saodat, Toji sar kabi nomlar orqali mehmonxona xizmatini faqatgina foyda olish uchun emas, mehmon-musofirlarga sharoit yaratish orqali savobga erishish niyati anglashiladi.

Buxoro mehmonxonalar etimologik-lug‘aviy tarkibi ham nihoyatda rang-barang. Tijorat inson faoliyati sohalaridan biri bo‘lib, u orqali odamlarning madaniyatlararo almashinuvi amalga oshiriladi. Shu bois ham doimiy, savdo va servis aloqalari viloyat ergonomikasiga ta'sir ko'rsatib, hudud hayotiga chuqur kirib bordi.

Buning natijasida mehmonxona nomlarini shakllantirishda o‘zlashma so‘zlardan foydalanish misli ko'rilmagan darajada keng tarqaldi.

Ma’lumki, o‘zbek tili o‘z tarixi davomida arab va forsiy tillari bilan juda chuqur aloqada bo‘lgan. Natijada ushbu tillardagi ko‘pgina so‘zlar so‘zlashuv va adabiy tildan o‘rin olgan. Buxoro mehmonxona nomlarida ana shunday o‘zlashma so‘zlar bilan birgalikda ingliz, fransuz, ispan, qadimgi yunon va lotin tillaridagi so‘zlardan ham foydalanilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Quyida Yevropa tillaridan olingan mehmonxona nomlarining har bir turiga misollar keltirilgan:

- a) ingliz tilida: **Friends, Gold star, Garden, House, Art, Dream, Travel, Heritage, Magic, City;**
- b) fransuz tilida: **Boutique, Hotel, Alliance, Basilic, Emerald, Liana, Terrace, Royal;**
- c) ispan tilida: **Palace, Fernando;**
- d) lotin, qadimgi yunon tilida: **Villa, Superior, Express Oasis, Crystal, Nostalgiya, Panorama, Safiya;**
- e) rus tilida: **По пути.**

Xulosa shuki, har bir shaharning qiyofasi, o‘ziga xosligi hudud aholisining lisonini tashkil etuvchi yozma s matnlarining butun majmuasini tashkil qiladi.

Ma'lum hudud ergonimiyasidagi nomlar lug'aviy ma'nosini o'rghanish o'sha hudud tarixi, madaniyati, an'analari bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazardan hududiy ergonomik birlik sifatida mehmonxona nomlari izohini o'rghanish tegishli hudud lingvomadaniy qiyofasi, tarixi, an'analari, buguni va ijtimoiy qiziqishlar ko'lамини anglashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni// "Xalq so'zi" gazetasi, 1999 yil, 14 sentyabr.
2. Mamatqulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. – 398 b.
9. To'xliyev N., Abdullaeva T. Ekologicheskiy turizm: sущност, tendensii i strategiya razvitiya. –T.: O'zbekiston, 2006. – s. 200.
10. Tuxliyev N., Abdullaeva T. Osnovy bezopasnosti v turizme. T.: Gos.nauch.izd-vo O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 367 s.
11. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti. 2010. – 238 b.
12. Tuxliyev I.S., Pardaev M.Q. Turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari. – T.: "NOSHIRLIK YOG'DUSI", 2010. – 74 b.